

O‘SMIR YOSHDAGI FARZANDLARDA AXBOROT HURUJLARIGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA GENDER STEREOTIPLARINING TA’SIRI.

Xolmatova Mohira Baxtiyorjon qizi
Qo‘qon Universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
e-mail: xusanovamohira8@gmail.com
Baxriddinova O‘g‘ilxon Fazliddin qizi
Qo‘qon Universiteti, Psixologiya yo‘nalishi 3 – kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19413401>

Anotatsiya. Ushbu maqolada o‘smir yoshdagi farzandlarda axborot hurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish jarayonida gender stereotiplarining ta’siri tahlil qilingan. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning keng rivojlanishi sharoitida o‘smirlar turli mafkuraviy, psixologik va madaniy axborot hurujlariga tez-tez duch kelmoqda. Shu bilan birga ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish hamda axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Oila, jamiyat, seteritip, axborot, o‘smir, yosh avlod, ijtimoiy institutlar, ommaviy axborot vositalari.

Abstract. This article analyzes the influence of gender stereotypes in the process of developing resistance (immunity) to information attacks among adolescents. In the context of the rapid development of information technologies and social networks, adolescents are increasingly exposed to various ideological, psychological, and cultural information attacks. Therefore, it is essential to develop their critical thinking skills, strengthen their ability to make independent decisions, and enhance their competencies in analyzing information. The article examines the role of gender stereotypes in shaping how boys and girls perceive, interpret, and respond to information. In addition, the study highlights how gender perceptions formed within the family, educational institutions, and the broader social environment influence adolescents’ information security awareness.

Keywords. Family, society, stereotypes, information, adolescence, young generation, social institutions, mass media.

Аннотация. В данной статье проанализировано влияние гендерных стереотипов на процесс формирования иммунитета к информационным атакам у подростков. В условиях стремительного развития информационных технологий и социальных сетей подростки все чаще сталкиваются с различными идеологическими, психологическими и культурными информационными атаками. В связи с этим особое значение приобретает развитие у них критического мышления, формирование способности принимать самостоятельные решения, а также укрепление навыков анализа информации. В статье раскрывается роль гендерных стереотипов в том, как мальчики и девочки воспринимают информацию, интерпретируют ее и выражают свое отношение к ней. Кроме того, рассматривается влияние гендерных представлений, формирующихся в семье, образовательных учреждениях и социальной среде, на информационную безопасность подростков.

Ключевые слова. семья, общество, стереотипы, информация, подросток, молодое поколение, социальные институты, средства массовой информации.

Oila - ijtimoiy institutlarning eng qadimgisi hisoblanadi. Oila jamiyatning ajralmas bo‘lagi bo‘lib biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo‘qki u o‘zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolari, qadriyatlarini inobatga olmagan

bo’lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Oila jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va demografik rivojlanishiga poydevor bo’ladigan asosiy ijtimoiy institut hisoblanar ekan, jismonan sog’lom, ma’nan kuchli, e’tiqodi mustahkam, aqlan yetuk, yangicha fikrlaydigan, ijod qiladigan barkamol avlodni yaratish uning eng asosiy vazifalaridan biridir. Oiladagi aloqalar boshqa har qanday guruhdan farqli ravishda o’ziga xos qarindoshlikka asoslangan bo’ladi. Oila bu inson uchun eng yaqin, ishonchli va muhim muhit, unda odam mehr, tarbiya va himoya topadi. Oila va nikohning paydo bo’lishiga sababchi omillardan biri ayniqsa bizning sharoitimizda farzand tug’ilishidir. Misol uchun: XIX asrning boshlari XX asrlarning o’rtalariga kelib ota-onalar farzandlarining ijtimoiy jamiyatda tutgan o’rni, ularning ijtimoiylashuviga alohida e’tibor bera boshlaganlar. Keyingi davrlar esa keksalarning yosh avlodga ta’siri, ularni qo’llab-quvvatlash, rivojlanishiga ko’maklashishning ahamiyatini anglash davri bo’lgan.

Reproduktiv xulq – bu oilada farzand tug’ilishi bilan bog’liq xulqdir. U oila a’zolarini o’z davrining fuqarosi sifatida ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, salomatligi darajasi, madaniyatiga bevosita bog’liq bo’lgan xatti-harakatidir. Bu harakatlarning asl motivi avvalo insondagi o’zidan nasl qoldirish, oilada er-xotinlik burchini ado etishga bo’lgan ishtiyoq va layoqatga borib taqaladi.

Gender stereotiplar - jamiyatda erkaklar va ayollar, o’g’il bolalar va qizlarning qanday bo’lishi, qanday xulq-atvoriga ega bo’lishi kerakligi haqidagi shakllangan tasavvurlar yig’indisidir. Misol uchun: o’g’il bola kuchli bo’lishi kerak, qiz bola muloyim va itoatkor bo’lishi kerak kabi qarashlar ko’plab oilalarda uchraydi. Bu stereotiplar ba’zan farzandlarning fikrlashi, o’zini tutishi va axborotni qabul qilishiga ham ta’sir ko’rsatadi. Bunday fikrlar ota-onaga ham taluqli bo’lib er - oilada boshliq, aytgani aytgan, so’ziga qat’iy rioya qilish kerak, iqtisodiy jihatdan ayolidan ustun turishi kerak, ayoli unga bo’ysinishi kerak, og’ir vaziyatlarda yig’lamasligi kerak, kuchli, irodali, baquvvat bo’lishi kerak degan tushunchalar mavjud. Ayollarda esa erkaklarga nisbatan farq bor albatta ayol ojizaligi, gap qaytarmasligi, eriga itoat qilishi, farzand tarbiyasiga e’tiborli bo’lishi, uy uyumushlari, ovqat tayyorlashi, ozodaligi va shunga o’xshash hislatlar egasi bolishi bilan farq qilib turadi deb takidlangan. Bu stereotiplar nafaqat insonning psixologik xususiyatlariga balki uning atrofdagi ilmiy, hayotiy ma’lumotlarni qabul qilishga har ta’sirini o’tkazmay qolmaydi.

Shuni ham takidlashim joizki oilada ota - ona tomonidan faqat tarbiya emas balki ularning bir biriga bo’lgan munosabatlari va ro’llari ham muhim masaladir. Ota - ona farzandiga qanchalik o’rnak bo’lsa bola ham hayot yo’lida uchrovchi har bir to’siq uchun kurashish, uni yechimi borligiga ishonish haqida o’ylaydi. Shunday ota - onalar borki bolasiga baqirish, turtkilash, mazax qilish hamda bosim o’tqazish bilan tajovus qiladi. Shunday paytda bolaga olib berilgan gajetlar yoki smartfonlar uning do’stiga ya’ni bir so’z bilan aytganda qo’lidagi telefonning quliga aylanib qoladi. Buning sababi esa oiladagi muhit yomonligi, bola o’zini ovutish maqsadida oiladan uzoqlashishi, ota - ona mehrini to’la qonli his qilmasligi bilan gavdalanadi. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida axborot oqimi misli ko’rilmagan darajada kuchayib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali turli g’oya va qarashlar yoshlar ongiga tez kirib bormoqda. Bunday holatda bolaning psixikasiga ziyon yetadi ya’ni ta’limga bo’lgan qiziqishi, o’ziga bo’lgan ishonchi, fikrlash doirasi torligi, dunyoga real tasavvurlar emas ijtimoiy tarmoqlardan olgan tasavvurlari bilan qaraydi, xarakteri agressiv holatga tushib boradi. Agressivligi darajasi ko’tarilib va o’qishga qiziqishi darajasi sustlab boradi, turli o’yinlar girdobiga turib qolmasligi uchun mas’uliyatni ota ona bo’yniga olishi kerak. O’smirlik davri - inson hayotidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biridir. Bu davrda yoshlar shaxs sifatida shakllanadi, ularning dunyoqarashi va qadriyatlarini rivojlanadi. O’smirlik davrida shaxsiyat rivojlanishida keskin o’zgarishlar boshlanadi. Bu o’zgarishlar fiziologik va psixologik o’zgarishlardir. O’smirlik davridagi faoliyatning asosiy turi ta’lim, tarbiya va ishlab chiqarish mehnati bilan bog’liq. Shu bilan birga, o’smir o’g’il-qizlarning aqliy rivojlanishida xarakterli o’zgarishlar ro’y beradi, ularning

mehnatga, o‘qishga ongli munosabati kuchayadi, kelajakdagi mehnatda egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarning har tomonlama barkamol bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlardan biri ekanligini anglashi unda ishtirok etish shakllanadi. O‘smirlik davrida o‘jarlik, o‘z kamchiliklarini inkor etish, urushqoqlik kattalarga nisbatan tajovuzkor munosabatning paydo bo‘lishi, negativizm, ongsiz xulq-atvor belgilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri balog‘atga etish natijasida paydo bo‘ladigan belgilar emas, balki bilvosita o‘smir yashayotgan ijtimoiy sharoitlar ta’siri ostida tengdoshlari hisobiga, uning o‘z mavqei turli jamoalar, kattalar bilan munosabatlar, maktab va oila munosabatlar orqali yuzaga keladigan xarakter xususiyatlaridir. Ushbu ijtimoiy sharoitlarni o‘zgartirish orqali o‘smirlarning xatti-harakatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Hozirgi paytda ijtimoiy tarmoqlar va internetning keng tarqalishi o‘smirlar hayotiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli o‘smir yoshdagi bolalatlarda axborot hurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Axborot hurujlari deganda turli yolg‘on ma’lumotlar, manipulyativ g‘oyalar, zararli kontent yoki noto‘g‘ri qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi axborotlar tushuniladi. O‘smirlar hali tajribasi kam bo‘lgani uchun bunday ma’lumotlarni tez qabul qilib qo‘yishi mumkin. Ayniqsa instagram, yutub, odnoklassniki, tik tok, fezbuk, telegram va shunga o‘xshash sayitlar orqali keladigan turli behayo va aqilga sig‘mas vedyolar orqali bolalar ongiga o‘z ta’sirini ko‘rastib boryabdi. Shuningdek gender tengligi, hurmat va bag‘rikenglik kabi qadriyatlarni singdirish ham axborot hurujlariga qarshi immunitetni mustahkamlaydi.

Ammo bugungi kunda bu tushuncha nafaqat biologik va balki ma’naviy va axborot sohasida ham qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga ma’naviy immunitet bu insonning yot g‘oyalar, zararli odatlar va axborot xurujlariga qarshi turish qobiliyatidir. Mashhur pedagog K.Ushinskiy tarbiya jarayonida shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhimligini ta’kidlagan. Uning fikricha haqiqiy ta’lim nafaqat bilim berishi, balki insonni hayotdagi turli ta’sirlarga ongli ravishda munosabat bildirishga o‘rgatishi kerak.

Xulosa qilib aytganda o‘smirlik davri inson hayotidagi eng nozik va muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ota-onalar bu davrda farzand tarbiyasiga yanada mas’uliyat bilan yondashishlari lozim. Chunki o‘smir yoshidagi bolalar atrof-muhit, ayniqsa tengdoshlari ta’siriga tez beriladi va ba’zan o‘ylamay turib turli qarorlar qabul qilishi mumkin. Shu bilan birga, o‘smir qanchalik mustaqil bo‘lishga harakat qilmasin, baribir ota - ona mehriga va qo‘llab quvvatlashiga ehtiyoj sezadi. Inson organizmi kasalliklarga qarshi biologik himoyaga ega bo‘lgani kabi, yoshlar ham zararli g‘oyalar va noto‘g‘ri ma’lumotlardan himoyalaniishi uchun ma’naviy hamda axborot immunitetni shakllantirish jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. O‘smirlik davriga qadam qo‘ygan har bir bolani nazorat qilish va aloqa vositalarini tekshib turish ota-ona uchun farzandining hayotiga befarq bo‘lmasligi, ularning do‘stlari, qiziqishlari va internetdan foydalanish jarayoniga e’tibor berishi zarur. O‘smir bilan doimiy muloqot qilish, unga ishonch bildirish va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish orqali salbiy axborotlarning ta’sirini kamaytirish mumkin. Ayniqsa zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yoshlarning ongini turli zararli g‘oyalar va noto‘g‘ri qarashlardan himoya qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ana shundagina yoshlar har qanday axborotni to‘g‘ri baholay oladigan, ma’naviy jihatdan yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Gaziev E. Psixologiya (O‘smirlar psixologiyasi). Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994. - 224b.
2. Dilbar Abdullayeva Oila psixologiyasi va psixoterapiyasi Darslik - Toshkent: “Ilm ziyo zakovat”, 2022. -244 b
3. D.B.Botirova “Yosh davrlar pedagogik psixologiyasi” darsligi toshkent 2021.

5. Афзалов, Х. (2026). ВЛИЯНИЕ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ НА ПСИХОЛОГИЮ ТРУДА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 6(20), 461-464.

6. O’ZIGA, B. L. V. U., & JIATLARI, X. ILK O ‘SPIRINLIK DAVRIDA SEVGI, MUHABBAT HISLARINING NAMOYON.

7. Wikipedia.